

REGISTONDAGI ULUG'BEK MADRASASIDA FAOLIYAT OLIB BORGAN MUTAFAKKIRLAR FAOLIYATIGA NAZAR

Sharipova Nargiza

Sirojeva Gulshoda

Djabbarova Farangiza

Registon maydoni gid ekskursovodlari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12514677>

Annotatsiya. Buyuk olim va hukmdor Mirzo Ulug'bek (1394 – 1449) o'zini ilmga bag'ishlab, Samarqandda madrasa qurdirdi, bu madrasa Ulug'bekning katta harakati tufayli o'z davrining ilg'or oliy o'quv yurti sifatidagina emas, balki ilmiy muassasa sifatida ham shonu shuhrat qozongan. Ulug'bekning atrofiga ilm va fan ahli, adabiyot va san'at namoyandalari to'plangan. Ularning orasida aniq fan olimlari, astronomlar yetakchi o'rinni egallar edi. Ushbu maqolada mazkur madrasada faoliyat olib borgan ayrim mutafakkirlarimizning hayot va ilm yo'li yoritiladi.

Kalit so'zlar: Madrasa, Mirzo Ulug'bek, tarix, Registon, ilm-fan.

KIRISH

Tarixdan ma'lumki, Ulug'bekning himoyasida ilm maskanining ilmiy salohiyati rivojlangan. Astronomiya bilan muntazam shug'ullanish muqarrar sur'atda tegishli kuzatishlarga hamda astrolyabiya, parallaktik chizg'ichlar, quyosh soati va boshqa shu kabi asboblarni yordamida eng sodda astronomik o'lchovlarga olib keldiki, bu esa rasadxona qurish uchun zamin bo'lgan. Madrasa bitgach, unda ta'lim beradigan kishilarni va Ulug'bekning o'zi har biri bilan alohida suhbatlashib, avval ularning ilmiy malakasi yetarli ekanligiga ishonch hosil qilgach, tayinlagan. Madrasa mudarrisiligiga kimni tayin etmoqchisiz? deb so'raganlarida, barcha ilmlardan xabari bor kishini topaman, deb javob beradi. Shunda yerda g'isht uyumlari oldida yurgan yupun kiyimda o'tirgan Mavlono Muhammad Ulug'bekning bu gapini eshitib qolgan, shu onda o'rnidan turib, bu vazifaga men loyiqman, deydi. Shundan so'ng Ulug'bek sulton uni imtihon qilib haqiqatan ham mazkur vazifaga loyiq topgan.

ASOSIY QISM

Bu yerda tilga olingan Qozizoda Rumiy (asli kelib chiqishi kunyolik Salohiddin Muso ibn Mahmud) mashhur matematik va astronomdir. G'oyat bilimli bo'lgan bu olimni zamondoshlari "o'z davrining Aflotuni" – deb atashgan. U Samarqandda dafn etilgan bo'lib, Ulug'bek sultonning unga ehtiromi balandligi boisidan uning qabri ustiga maqbara qurishga farmon bergan. Maqbara Shohi Zinda maqbarasining yaqinida joylashgan. Ulug'bek maktabi tarixida muhim rol o'ynagan boshqa yana bir yirik matematik va astronom G'iyosiddin Jamshid ibn Mas'ud edi.

Ulug'bek maktabida ish olib borgan Muiniddin, uning o'g'li Mansur Koshiy va Koshiyning shogirdi Ulug'bek mirzo asarlarining sharhchisi Ali ibn Muhammad Birjondiy ham taniqli astronomlardan bo'lgan. Ulug'bek asarlarining sharhchisi Qozizoda Rumiy va Ulug'bekning shogirdi samarqandlik matematik va astronom Alouddin Ali ibn Muhammad Qushchini ham zamondoshlari "o'z davrining Ptolomeyi" deb atashgan. Ali Qushchi ilmiy sohada Ulug'bekning eng yaqin yordamchilaridan biri edi.

Ulug'bek maktabining nomdor olimlaridan biri Qozizodaning nabirasi Mirim Chalabiy nomi ham diqqatga sazovordir. Madrasada Ulug'bek mirzoning o'zi ham falakiyot ilmiga oid ilmiy

ma'ruzalar o'qir edi. Uchinchi darajali algebraik tenglamaga olib kelgan bir gradus yoyning sinusini aniqlash – Ulug'bek mirzo va uning maktabi erishgan ajoyib va eng muhim muvaffaqiyatlardan biri bo'lgan. Bu kabi ilmiy kashfiyotlar o'zining ilmiyligi va ahamiyati bilan biri-biridan farq qilgan.

"Ziji Ulug'bek", ya'ni Ulug'bekning astronomik jadvallari, boshqacha so'z bilan aytganda, "Ziji Ko'ragoniy"ning ajoyib sharhchisi astronom Birjondiyning yozishicha, yuqoridagi masalani hal qilish (ya'ni uchinchi darajali algebraik tenglamaga olib kelgan masalani hal qilish) usullaridan biri Jamshidga, ikkinchisi esa zaxmatkash sulton Ulug'bekka mansubdir.

Mirzo Ulug'bek olimlar, rasadxona xodimlari oldida bir necha bor ilmiy ma'ruzalar qilgan va ular bergan savollarga javob qaytargan. Masalan, Sediyo qo'lyozmada qayd qilingan ana shunday voqealardan birini keltiradi. Samarqanddagi astronomlar maktabining vakili, "Ziji Ko'ragoniy" asarining sharhchisi astronom Chalabiyning bu qo'lyozmasida bunday deyiladi. "Bizning mullamiz G'iyosiddin Jamshid bir necha bor sulton, shahzoda, amaldorlar ishtirok etgan yig'ilishda shu jadvallarning muallifdan nima uchun astronomiyaga oid risolalarda apogey va perigeyda hech qanday tenglama yo'q, deb aytilgan, vaholanki, biz ularni aniqlashni jadvallardan topib olamiz, deb so'ragan.

Mirzo Ulug'bek bunday deb javob qilgan: Mening jadvallarimda ana shu ikki nuqta uchun tenglama belgilab berish mening vazifamga kirmaydi". "G'iyosiddinga, - berilgan bu javob, deb yozadi Chalabiy, - to'g'ri, chunki shundan keyin biz o'z sharhlarimizda bu fikrlarni bayon qilib berdik".

Bundan kelib chiqadiki, hatto G'iyosiddin Jamshid kabi yirik matematik va astronom olimlar ham Ulug'bek mirzoning maslahatlariga muhtoj bo'lgan, ilmiy masalalarda unga murojaat qilgan va batafsil javoblarni olgan. Ulug'bekning faoliyati mutaassib kuchlar bilan kurashlarda toblandi. Ehtimol, olim Ulug'bek bu kabi murakkab sharoitda ijod qilmaganida, unga tinch va osoyishta muhit bo'lganida, uning qoldirgan ilmiy merosi bundan ham barakaliroq bo'lishi tayin edi.

G'iyosiddin Jamshid Koshiy Ulug'bek mirzoning ishonchli hamkori edi. U Samarqand astronomiya maktabida o'z zamonasida matematika fanida inqilob qilgan. U to'rtinchi darajali kvadrat tenglamalarni yechish muammosini ixtiro qilgan. Taassufki, uning bu ixtirosi bizgacha yetib kelmagan. U o'zining "Risalat at-atvor" - "Vatarlar va sinuslar haqida" risolasida astronomiya ilmida qayd etilmagan muammolarni hal etgan. Jamshid Koshiyning qilgan ixtirolarini undan ikki yuz yil keyin Yevropalik olimlar takrorlagan. Chunki bu vaqtda Koshiyning nomi va ixtirosi butun dunyoda katta shuhrat qozonib ulgurgan edi.

Bunday qoida o'rta asr O'rta Osiyosiga ham taalluqli edi. ReakSION kuchlar hamma narsani din niqobi ostiga yashirar, ilgor g'oyalarni islom diniga zid, – deb hisoblar va hokimiyatda o'z mavqeini shu tariqa mustahkam ushlashga urinardi. Dunyoning geotsentrik sistemasi Ulug'bek maktabi astronomik ishlarining negizini tashkil etadi. Ulug'bek maktabida o'qitilgan fanlar orasida ta'lim asosini astronomiya fani tashkil etardi. Ulug'bek boshchilik qilgan astronomlarning muvaffaqiyatli ravishda olib borgan ta'lim va ilmiy ishlari ularni aniqroq asboblar bilan ta'minlangan namunali rasadxona qurish kerak, degan fikrga olib kelgan. Ulug'bek yuqorida aytib o'tilgan madrasani qurdirganidan keyin oradan to'rt yil o'tgach, ana shu g'oyani amalga oshirishga kirishgan [3].

Mirzo Ulug'bek, Qozizoda Rumiy, Mavlono Muiniddin Koshiy bilan o'zaro maslahatlashib, Ko'hak tepaligi etagida, Obirahmat soyining bo'yida rasadxona binosini qurdirgan. Bu

binoning atrofida baland hujralar qurilgan. Rasadxona joylashgan tepalik etaklarida ajoyib bog' barpo etilgan. Ulug'bek o'zining ko'pgina vaqtini shu bog'da o'tkazar edi. Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida ham shunday ma'lumotni o'qish mumkin: "Yana bir oliy imorati Pushtai Ko'hak domanasida rasaddurkim, zich bitmakning olatidur, Uch oshyonlikdur" [2]. Shuni ham aytish kerakki, 1259 yilda Marag'oda Nosiriddin Tusiy tomonidan qurilgan rasadxona XIV asrning birinchi yarmidayoq xaroba holiga kelgan edi.

XULOSA VA MUNOZARA

Amir Temur vorislari Movarounnahr, Xurosonda ilm-fanning yuksak darajada ravnaq topishiga, Samarqandni madaniyat markaziga aylantirishga ko'p kuch sarflashgan. Bu davrda Movarounnahrda ilmning ko'p sohalari ravnaq topgan. Samarqandda Ulug'bek boshchiligida vujudga kelgan falakiyot maktabining dovrug'i tez orada butun jahon uzra taralgan. Hirotida buyuk shoir va mutafakkirlar Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy yashashib, samarali ijod qilishgan. Bularning hammasida buyuk bobokalonimiz Sohibqiron Amir Temur va uning alloma nabirasi – Mirzo Ulug'bekning xizmatlari beqiyosdir. Shu boisdan yoshlarni barkamol etib tarbiyalash uchun bilim sarchashmasi hisoblangan Temuriylar davri ma'naviy qadriyatlarini o'rganish va yoshlarga yanada chuqurroq singdirish nihoyatda dolzarbdir.

References:

1. Bo'riev O., Qahhorov N. Temuriylar Renessansi. Monografiya. – T.: Tafakkur, 2020. – 192 bet.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: "Yulduzcha", 1989. –B. 45
3. Muhammadjonov A. O'zbekiston tarixi. – T.: "Sharq", 2013. – B.150-156
4. Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'at. – T.: "Sharq", 2013, – B.512
5. Mirzo Ulug'bek suv ichgan piyola // "Xalq so'zi", 2018 yil 13 mart.

INNOVATIVE
ACADEMY